

## PROKURORNING SUD TIZIMIDAGI ISHTIROKI VA ROLI

**Maxmatmurodov Hasan**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand*

*Davlat Universiteti yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi,*

[mahmatmurodovhasanboy@gmail.com](mailto:mahmatmurodovhasanboy@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada prokurorning sudlardagi ishtiroki va uning huquqiy tizimdagi o'rnini tahlil qilinadi. Prokuror sud jarayonida davlat manfaatlarini himoya qiluvchi muhim subyekt sifatida ishtirok etib, jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Jinoiy ishlar bo'yicha u davlat ayblovcisi sifatida qatnashib, dalillarni taqdim etadi va adolatli qaror qabul qilinishini qo'llab-quvvatlaydi. Fuqarolik va iqtisodiy ishlarda esa davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadi. Maqolada prokurorning sud qarorlarining qonuniyligini ta'minlashdagi roli, uning protsessual vakolatlari hamda sud-huquq tizimidagi ahamiyati va xalqaro tajribalar bilan taqqoslanadi. Shuningdek, prokurorning sud jarayonidagi ishtiroki orqali qonun ustuvorligini ta'minlash va odil sudlovni amalga oshirishdagi ta'siri ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zi:** Prokuror, sud tizimi, adolat, huquq, jinoyat-protsessual huquq, qonunchilik, prokuror vakolatlari, sud jarayoni, davlat ayblovcisi.

### **The Role and Participation of the Prosecutor in the Judicial System**

**Hasan Maxmatmurodov**

4th-year student at the Faculty of Law, Sharof Rashidov Samarkand State University

**Abstract:** This article analyzes the participation of the prosecutor in court and their role in the legal system. The prosecutor acts as a key subject in the judicial process, protecting the interests of the state and ensuring legality in criminal, civil, economic, and administrative cases. In criminal cases, the prosecutor participates as the state accuser, presenting evidence and supporting the fair decision-making process. In civil and economic cases, the prosecutor participates in defending the interests of the state and society. The article discusses the prosecutor's role in ensuring the legality of judicial decisions, their procedural powers, and their significance in the judicial system, compared to international practices. It also examines the impact of the prosecutor's participation in the judicial process in ensuring the rule of law and administering justice.

**Keywords:** Prosecutor, judicial system, justice, law, criminal-procedural law, legislation, prosecutor's powers, judicial process, state accuser.

### Роль и участие прокурора в судебной системе

**Хасан Макматмуродов**

Студент 4 курса юридического факультета Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

**Аннотация:** В данной статье анализируется участие прокурора в судебных процессах и его роль в правовой системе. Прокурор является важным субъектом судебного процесса, защищая интересы государства и обеспечивая законность в уголовных, гражданских, экономических и административных делах. В уголовных делах прокурор участвует как государственный обвинитель, представляя доказательства и поддерживая принятие справедливого решения. В гражданских и экономических делах прокурор участвует в защите интересов государства и общества. В статье рассматриваются роль прокурора в обеспечении законности судебных решений, его процессуальные полномочия, значение в судебно-правовой системе, а также проводится сравнение с

международной практикой. Также анализируется влияние участия прокурора в судебном процессе на обеспечение верховенства закона и реализацию правосудия.

Ключевые слова: Прокурор, судебная система, правосудие, право, уголовно-процессуальное право, законодательство, полномочия прокурора, судебный процесс, государственный обвинитель.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda sud-huquq tizimi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu tizimning muhim bo'g'inlaridan biri prokuror bo'lib, u sud jarayonlarida ishtirok etib, davlat, jamiyat va fuqaro manfaatlarini himoya qiladi. Prokuror jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovchisi sifatida sudga qatnashib, ayblovning qonuniyligi va asosli ekanligini ta'minlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarida ham qonuniylikni ta'minlash, huquq buzilishlarining oldini olish va sud qarorlarining adolatli bo'lishini nazorat qilish uning asosiy vazifalaridan biridir. Prokurorning sudlardagi ishtiroki huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga xizmat qilib, sud qarorlarining adolatli va qonuniy bo'lishiga kafolat yaratadi. Shu bois, uning sud tizimidagi o'rni beqiyos bo'lib, huquq ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Prokurorning sud tizimidagi asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat: Davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash – Jinoyat ishlari bo'yicha prokuror sudga ayblovni ilgari surib, adolatli sud qarorlarini chiqarishda ishtirok etadi; qonuniylikni ta'minlash – Sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslik, sud ishlarini xolis va odil yuritilishini nazorat qilish; fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish – Sudga ishtirok etib, davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi va sud qarorlarini nazorat qilish – Prokuror noqonuniy yoki asossiz sud qarorlariga e'tiroz bildirishi va ularga protest kiritishi mumkin.

Prokurorning sud tizimidagi asosiy ahamiyati bilan birgalikda Prokurorning vakolatlari turli sud jarayonlarida keng qamrovli bo'ladi va quyidagi

yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi: Jinoyat ishlari boʻyicha- davlat ayblovini ilgari surish va sudda isbotlash, tergov jarayonlarini nazorat qilish va qonuniyligini tekshirish, noqonuniy sud qarorlariga nisbatan protest kiritish; Fuqarolik ishlari boʻyicha- fuqarolar, davlat yoki yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun sudga daʼvo kiritish, sud qarorlarini nazorat qilish va asossiz qarorlarga eʼtiroz bildirish; Maʼmuriy va iqtisodiy ishlarda- davlat organlarining huquqbuzarliklarini aniqlash va sud orqali choralar koʻrish, davlat manfaatlarini ifodalovchi sud ishlarida ishtirok etish; Sud qarorlarini nazorat qilish- qonuniylikni taʼminlash maqsadida sud qarorlarini oʻrganish, apellyatsiya va kassatsiya tartibida sud qarorlariga eʼtiroz bildirish, oliy sud instansiyalariga murojaat qilish. Prokurorning vakolatlari qonunchilik asosida belgilanadi va u sud-huquq tizimida adolat hamda qonun ustuvorligini taʼminlash uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Prokuror jinoyat ishlari boʻyicha sud jarayonida davlat ayblovchisi sifatida qatnashadi. U quyidagi funksiyalarni bajaradi: Davlat ayblovini qoʻllab-quvvatlash – prokuror tergov jarayonida toʻplangan dalillarni taqdim etib, ayblovni asoslaydi. Sud jarayonida qonuniylikni taʼminlash – sud tergov davomida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qiladi. Dalillarni tahlil qilish va baholash – jinoyat ishi boʻyicha mavjud dalillarni sudga taqdim etadi va ularni tahlil qiladi. Sud hukmi boʻyicha xulosa berish – sud hukm chiqargach, prokuror uni oʻrganib, apellyatsiya keltirish yoki uni qoʻllab-quvvatlash haqida qaror qabul qiladi. Oqlov hukmiga nisbatan protest keltirish – agar sud tomonidan chiqarilgan hukm prokurorning fikricha, qonun talablariga zid boʻlsa, u yuqori instansiyaga protest kiritishi mumkin.<sup>1</sup>

Fuqarolik sud ishlarida prokuror umumiy manfaatlarini himoya qilish yoki muayyan shaxslarning huquqlarini taʼminlash uchun qatnashishi mumkin. Uning funksiyalari quyidagilardan iborat: Fuqarolik ishlarini koʻrib chiqishda ishtirok etish – davlat manfaatlarini ifodalovchi tomon sifatida sudga daʼvo arizasi yoki protest kiritadi. Huquq va erkinliklarning himoyasi – aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. (2022). Toshkent: Adolat nashriyoti.

qatlamlarini himoya qilishda prokuror sud jarayoniga jalb qilinishi mumkin. Sud qarorlarini o'rganish va nazorat qilish – agar sudning fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan qarori adolat tamoyillariga mos kelmasa, prokuror protest kiritishi mumkin.

Prokuror ma'muriy va iqtisodiy sudlarda davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida qatnashadi. Uning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishlarni yuritish – davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqbuzarliklarini tekshiradi va qonuniy choralar ko'rilishini ta'minlaydi. Iqtisodiy sud ishlarida davlat manfaatlarini himoya qilish – davlat mulki va iqtisodiy manfaatlarga oid sud jarayonlarida ishtirok etadi. Sud qarorlariga nisbatan protest keltirish – agar iqtisodiy yoki ma'muriy sud tomonidan qabul qilingan qaror qonun talablariga zid bo'lsa, prokuror tegishli protest kiritadi. Nazorat funksiyasini amalga oshirish – prokuror ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini tahlil qilib, qonun buzilishi hollari aniqlansa, ularni bartaraf etish uchun chora ko'radi. Prokuror barcha sud jarayonlarida adolat va qonuniylikni ta'minlash uchun muhim rol o'ynaydi. Jinoyat ishlari bo'yicha u davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etsa, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy sudlarda davlat manfaatlari va fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi. Shu sababli prokurorning ishtiroki sud ishlarining qonuniy va adolatli olib borilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prokuratura davlatning muhim huquqiy institutlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi qonun ustuvorligini ta'minlash va nazorat qilishi haqida yuqorida aytib o'tdik va bu bilan birgalikda prokuror qonuniylikni ta'minlash, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash, sud qarorlarini nazorat qilish va zarur hollarda apellyatsiya kiritish kabi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi va bu funksiyalar haqida quyida batafsil yoritiladi.

Davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash Davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash prokurorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. U jinoyat ishlari bo'yicha tergov jarayonida ishtirok etadi va sudda davlat nomidan ayblovni ilgari suradi. Prokuror ayblov dalillarini taqdim etish, guvohlarni so'roq qilish va jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli jazo tayinlanishini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, prokuror

tergov organlari bilan hamkorlikda jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni to'plash, qonun buzilishlarini aniqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonida ishtirok etadi. Shu bilan birga, prokuror ayblov xulosasini tayyorlash va sudda uni asoslash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

Qonuniylikni ta'minlash va nazorat qilish Prokuratura barcha sohalarda qonuniylikni ta'minlash va nazorat qilish vakolatiga ega. Bu vazifa quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini nazorat qilish; Qonunlarning to'g'ri ijro etilishini ta'minlash; Davlat idoralarining qarorlarini qonuniylik nuqtai nazaridan o'rganish va baholash; Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish; Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash choralari ishlab chiqish. Prokuror jamiyatdagi huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qilib, qonun buzilishlarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralari ko'radi. U davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqiy faoliyatini nazorat qiladi hamda qonunga zid qarorlarni bekor qilish bo'yicha chora ko'radi.

Sud qarorlarini nazorat qilish va apellyatsiya kiritish huquqi Prokuror sud qarorlarining qonuniy va adolatli bo'lishini nazorat qiladi. Agar sud qarorida qonun buzilish holatlari aniqlansa, u apellyatsiya tartibida yuqori instansiyaga murojaat qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, prokuror: Sud ishlarida ishtirok etib, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qiladi; Jabrlanuvchilarning huquqlarini ta'minlashga ko'maklashadi; Sud qarorlarining adolatliligini ta'minlash uchun protest kiritish vakolatiga ega; Ma'muriy ishlar, fuqarolik va iqtisodiy nizolarda ham ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, prokuror sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish va noqonuniy qarorlarni bekor qilish uchun kassatsiya va nazorat tartibida shikoyat kiritish vakolatiga ham ega. <sup>2</sup>Bu uning fuqarolar va davlat manfaatlarini himoya qilishdagi muhim vositalaridan biridir. Prokurorning faoliyati davlatning huquqiy tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U jinoyatchilikka qarshi kurashish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud qarorlarining adolatli bo'lishiga erishish kabi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni. (2017). Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.

vazifalarni bajaradi. Shuningdek, prokuratura fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Prokurorlarning faoliyati nafaqat jinoyat ishlari bilan cheklanib qolmay, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan. Shu sababli, prokuratura instituti davlatning barqarorligini ta'minlovchi asosiy organlardan biri hisoblanadi va uning faoliyati jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Prokurorlar davlatning huquqni muhofaza qilish tizimida muhim rol o'ynaynashi, ularning vazifalari faqatgina jinoyatlarni tergov qilish va sudga taqdim etish bilan cheklanmaydi, balki adolatni ta'minlash, huquqni muhofaza qilish va jamiyatda qonun ustuvorligini saqlash kabi kengaytirilgan vazifalarni o'z ichiga olishi haqida so'z yuritdik. Yana shuni aytish joizki turli mamlakatlarda prokurorlarning huquqiy maqomi va vazifalari bir-biridan farq qilsa-da, umumiy maqsad bir xil – adolatli va qonuniy sudlovni ta'minlash hisoblanadi. CHet el mamlakatlaridagi prokurorlar roli va O'zbekiston amaliyotidagi farqlar tahlil qiladigan bo'lsak, prokurorlarning roli chet elda turlicha tashkil etilgan va har bir mamlakatda o'ziga xos qonuniy va amaliy xususiyatlarga ega. Masalan: Dunyoning eng yirik davlatlari misolida.

AQSh: AQShda prokurorlar, ayniqsa federal va shtat darajasida, kuchli vakolatlarga ega. Ular jinoyatlarni tergov qilish, sudlarda davlatni himoya qilish va xalqaro huquqni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydilar. AQShda prokurorlar, ko'pincha, adolatli sudlovni ta'minlash, shuningdek, jinoyatchilarni javobgarlikka tortishda asosiy kuch hisoblanadi.

Fransiya: Fransiya tizimida prokurorlar (Fransuzcha "Ministre Public") sudlarda davlatni himoya qilish va jinoyatlarni tergov qilish bilan shug'ullanadi. Biroq, Fransiyada prokurorlar faqat sudda davlat tarafidan ishtirok etadi va ularning vakolatlari cheklangan. Prokurorlar o'zlarining pozitsiyalarini adolatni ta'minlashga qaratadi va ko'pincha mustaqil sud tizimidan farqli o'laroq, davlatning qarorlarini amalga oshiradilar.

Germaniya: Germaniya tizimida prokurorlarning roli ancha mustaqil va teng huquqli sud tizimi bilan birgalikda ishlashga asoslangan. Prokurorlar, sudlardagi davlatni himoya qilishdan tashqari, jinoyatlarni tergov qilishda va prokuraturaning amaldagi qonuniyligi ta'minlanishida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasida ham qonunchiligida prokurorlarning roli va vakolatlari aniq belgilangan bo'lib, ular davlatning huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Prokurorlarning roli xalqaro tajribada turlicha bo'lishiga qaramay, yuqorida takidlaganimiz kabi umumiy maqsad adolatli sudlov va qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Chet el mamlakatlaridagi prokurorlar o'z vazifalarini amalga oshirayotganda davlatning huquqiy tizimiga qarshi noqonuniy faoliyatni bartaraf etish, shuningdek, jinoyatlarni tergov qilishda yirik rol o'ynaydilar. O'zbekistonning prokuratura tizimi ham yuqoridagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi, lekin uning vakolatlari va ishlash tartibi o'zining alohida xususiyatlariga ega. O'zbekiston amaliyotida prokurorlarning roli davlat huquqni muhofaza qilish tizimida muhim o'rin tutadi va bu tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **Xulosa va takliflar:**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, prokurorlar sud tizimida markaziy rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat jinoyatlarni tergov qilish va davlat manfaatlarini himoya qilish, balki sudning adolatli qarorlar qabul qilishiga ko'maklashadilar. Prokuratura organlari o'z vazifalarini mustaqil va professional tarzda amalga oshirishi kerak, bu esa sud tizimining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlaydi. Prokurorlar sud majlislarida ayblovchi sifatida ishtirok etib, jinoyatlarning oydinlashuvi va jazo choralari to'g'risida muhim qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etadilar. Ular shuningdek, tergov jarayonlarini nazorat qiladi, sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish huquqiga ega va qonuniylikni ta'minlashda faol rol o'ynaydi. Mavzu bo'yicha taklif sifatida shuni keltirib o'tmoqchiman. Prokuratura va sud tizimining ishlarini jamoatchilik nazorati ostida amalga oshirish, shaffoflikni ta'minlash hamda aholiga tizimning qanday



ishlashini tushuntirish kerak. Bu jamoatchilik ishonchini oshiradi va sud jarayonlarining adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, prokurorlarning sud tizimidagi roli va ishtiroki nafaqat jinoyatlarni hal qilishda, balki huquqni muhofaza qilishda, adolatni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Prokuraturaning samarali faoliyati sud tizimining ishonchligini oshiradi va umumiy huquqiy tizimning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2021). Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni. (2017). Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. (2022). Toshkent: Adolat nashriyoti.
- 4.International Association of Prosecutors (IAP). (2019). "Standards of Professional Responsibility and Statement of the Essential Duties and Rights of Prosecutors." The Hague, Netherlands.
- 5.Abduqodirov, A. (2020). "Prokurorlik nazorati va sud tizimidagi islohotlar." O'zbekiston huquqshunoslik jurnali, 4(2), 56-78.
- 6.Karimov, S. (2021). "Sud-huquq tizimidagi islohotlar va prokuror vakolatlari." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.